

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.M.Maniyozov	
Inson-jamiat-innoiya dialektikasining ijtimoiy-falsafiy tahlili	206
Sh.Nazarova	
The portrayal of modern women in Bahmanyor's <i>Shahanshah</i> : a comparative analysis of urban and rural femininity in tajik literature	212
F.X.Utayeva	
Buxoroda tashkil etilgan yengil sanoat tarmoqlarining tarixi	215
J.Xusanov	
Kitobxonlikni yoshlar ma'naviyatga ta'siri	220
O.M.Karimov	
Mehnat erkinligi va inson qadr-qimmati tushunchalarining aksiologik tahlili	224
R.J.Soxibov	
Yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning metodologik aspektlari	228
X.S.Qosimov	
Yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	231
Sh.O'.Maxmudov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning estetik madaniyatini oshirishda musiqa ta'limi omilining ijtimoiy-falsafiy masalalari	234
M.A.Nuruddinov	
Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy zaruriyati	237



UO'K: 101.1

YOSHLARDA TEXNOETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY JIHATLARI

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ТЕХНОЭТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF TECHNOETHICAL CULTURE IN YOUTH

Qosimov Xayrulla Sa'dullayevich



mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning mexanizmlari va tizimini takomillashtirishning samaradorligi, yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari o'rganilgan. Shuningdek, yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы развития техноэтической культуры молодежи, эффективность совершенствования механизмов и системы развития техноэтической культуры молодежи, социально-философские факторы развития техноэтической культуры молодежи. Анализируются социально-философские аспекты развития техноэтической культуры молодежи.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of the development of technoethical culture in young people, the effectiveness of improving the mechanisms and system of developing technoethical culture in young people, the socio-philosophical factors of developing technoethical culture in young people. Also, the socio-philosophical aspects of developing technoethical culture in young people are analyzed.

Kalit so'zlar: texnoetik madaniyat, jamiyat, modernizatsiya, innovatsiya, ijtimoiy, individual, mexanizm, texnologiya, madaniyat, konseptual va aksiologik asos.

Ключевые слова: техноэтическая культура, общество, модернизация, инновация, социальный, индивид, механизм, технология, концептуально-аксиологическая основа.

Key words: technoethical culture, society, modernization, innovation, social, individual, mechanism, technology, culture, conceptual and axiological basis.

KIRISH

Bugungi kunda texnoetik munosabat va madaniyatni shakllantirish orqali texnikani yaratish va texnologiyalardan foydalanish muhitini insonparvarlashtirish zarurati dolzarblik kasb etmoqda. Bu orqali axloqiy mezonlarni texnikani yaratish, undan foydalanish va tasarruf etishda qo'llash va egalik qilish mas'uliyatini anglashga undamoqda. Jamiyatning har bir bo'g'inida texnika va texnologiyalarning imkoniyatidan oqilona foydalanish natijasida tubdan o'zgarishlar bo'layotganligini ko'rish mumkin. Texnika imkoniyatlari natijasida inson hayoti farovonlashib, uzog'i yaqin, og'iri yengil bo'lib borayotganligi namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, texnogen sivilizatsiya rivojlanib borishi ortidan insonni "mashina"lashib borishi, texnikaga qaram bo'lib borishi yuzaga kelmoqda. Shu bois jamiyatda texnikadan ratsional foydalanib, undan faqat ezgu maqsadlar yo'lida foydalanishga qaratilgan texnoetik madaniyatni shakllantirish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Buning uchun ta'lim tizimida, o'qitishning quyi bosqichlaridanoq o'quvchi-yoshlarda texnikadan foydalanish madaniyatini, texnika etikasini shakllantirish va bu orqali yoshlarda insonni texnikaga qaramlashib borishidan saqlashga qaratilgan ta'limni rivojlantirish talab etiladi. Shu bilan birga kadrlar tayyorlashda ham texnoetik madaniyati yuksak mutaxassislarni tayyorlash, ayniqsa, oliy texnika ta'limida texnika etikasini shakllantirish, bo'lajak texnikalarda texnoetik madaniyatni rivojlantirish zarurati ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning mexanizmlari va tizimini takomillashtirishning samaradorligi, yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari J.Martin, X.Bek, F.Dessauer, S.Xoking, N.Vig, J.Ellyul, M.Xaydegger, K.Yaspers, V.S.Stepanov, B.Stepin, M.I.Shadov, Yu.A.Chernegov, U.M.Bazarova, U.A.O'rinov, M.B.O'razova, D.M.Fayzullayeva, O.A.Abdquddusov kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda texnika tabiatini aniqlash qay darajada muhim ekanligini tushuntirib o'tirishning hojati bo'lmasa kerak. Fenomen sifatida texnika mashinalar va mehnat qurollari sifatida, texnika inshootlari va hatto texnika muhiti sifatida ham amal qiladi. Zero, "(ustozlardan) ta'lim olishga, bilim, ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish, o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi zarur", "Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar". Texnikaning fenomenal xossalariga texnikada foydalaniladigan bilimlar, texnikani muhokama qilishda ishlatiladigan turli xil madaniy "matnlar" va kishilarning texnik xulq-atvori kiradi. Bularni bilish texnika tabiatini anglashga va undan samarali foydalanishga imkon beradi. Texnika tabiati va uning gumanistik xarakterini ta'lim muhitida o'rganish va o'rgatish mas'uliyati texnoetik madaniyatni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Texnika xususidagi mulohazalarga tafakkurning mazkur fenomen g'oyasi va mohiyatini aniqlash, uning madaniyat va ijtimoiy boriqdagi o'rnini tushunish majburiyatini yuzaga chiqaradi. G'arb olimi J.Martin fikricha, "bugungi kunda sayyoramizga yetkazilgan zarar oqibatlarini tugatishdan ko'ra sayyoramizning o'zini yo'q qilib tashlash osonroq ekanligini tan olar ekan, ayni vaqtda, "bu muammoni texnologiya yaratgan, lekin uning birdan-bir yechimi – texnologiyani rivojlanishiga monelik qilish emas, balki uni har tomonlama rivojlantirishdir. Texnologiyadan voz kechish yoki uning rivojlanish jarayonini to'xtatish dunyoni misli ko'rilmagan muhtojliklarga mahkum etishdan boshqa narsa emas... Tabiat bilan uyg'un bo'lgan texnologiyalarni tanlash va rivojlantirish zarur". demak, texnika va texnologiyani insoniylashtirish, tabiat va inson bilan muvofiq holatga keltirish lozim. Ayni vaqtda, hozirgi zamon texnogen sivilizatsiyasini insoniylashtirish yo'lidagi har qanday urinishlar murakkab vaziyatlarni yuzaga chiqarmoqda.

Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarida rivojlantirish talab etilayotgan texnoetik madaniyatning ikki asosiy vazifasi, ya'ni, texnikaning tabiati va mohiyatini, uning axloqiy maqomini anglab yetish, shuningdek texnika va texnogen sivilizatsiya ta'sirida vujudga kelgan inqirozdan chiqish yo'llarini yuzaga chiqarmoqda. Yana bir metodologik muammo – texnika etikasi doirasida texnikani faoliyatga, texnik oqilonalik shakllariga, qadriyatlarga, madaniyatning muayyan jihatlariga reduksiyalash hisoblanadi. Bunga ishonch hosil qilish uchun texnoetik madaniyat doirasida texnika tushunchasiga berilgan ta'riflarga nazar tashlashning o'zi kifoya qilsa kerak.

Texnika – bu maqsadlarga erishish vositasi, insonning muayyan faoliyat turining maxsuli hisoblanadi. AyRim ta'riflarda g'oyalar va ularni ro'yobga chiqarishning roliga, muayyan qadriyatlarining ahamiyatiga urg'u beriladi. Masalan, X.Bek fikricha, "texnika tabiatni inson ruhi vositasida o'zgartirish va inson xohish-istagiga moddiy tus beruvchi hamma narsadir". Boshqa bir olim F.Dessauer fikricha, "texnika g'oyalarning real borlig'i bo'lib, u tabiiy materiallar va predmetlarga ishlov berilishi natijasida vujudga keladi". Shuni qayd etish lozimki, texnika tushunchasiga berilgan bunday ta'riflarning barchasida uning moddiylashuvi yuz beradi, ya'ni texnika go'yoki g'oyib bo'ladi va uning o'rnini faoliyatning muayyan shakllari, qadriyatlar, inson ruhi, madaniyatning turli xil jihatlariga egallaydi. Ba'zan texnika substantsiya sifatida emas, balki har qanday inson faoliyati va madaniyatning teran va olamshumul jihati sifatida namoyon bo'ladi.

Kompyuter texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya vositalarining ta'limda joriy etilishi bilan ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi sub'yektlarning faoliyatlarida keskin burilish jarayoni sodir bo'ldi. chunki axborot texnologiyalari orqali vaqtning tejalishi, sifatli va samarali ta'lim olish, sodir bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarning ayni paytida xabardor bo'lish imkoniyatlarining oshishi ta'limning yangi qiyofaga ko'tarilishi, tarbiya jarayonining esa dolzarblashuviga olib keldi. Lekin globallashuv jarayoni davrida texnika va texnologiya taraqqiyoti inson ongi va dunyoqarashidan

ILMIY AXBOROT

ancha ilgarilab ketmoqda. Ayni paytda texnika taraqqiyoti natijalari bo'lmish zamonaviy texnologiyalar ta'lim va tarbiya jarayonlarida yutuqlarga va samarali natijalarga erishish omili bo'lish bilan birga unga ma'lum darajada salbiy ta'sir o'tkazish vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

XULOSA

Hozirgi zamon odami texnikada tabiat qonunlarining amal qilishini va o'z muhandislik ijodini ko'ra boshlaydi. Bu yerda gap texnikaning alohida talqini haqida emas, balki uning madaniy mavjudligi va borlig'i haqida boradi. Texnika bir "mantiq"ga muvofiq ruh kabi yashaydi, boshqa bir "mantiq"ga muvofiq ilohiy ijod mahsuli sifatida namoyon bo'ladi, yana bir "mantiq"ga muvofiq esa tabiat jarayoni sifatida amal qiladi. Madaniyatda texnika "ehtijoj va zaruriyat qonunlari"ga muvofiq emas, balki g'oyalar, ongning madaniy shakllari, dunyo haqidagi tasavvurlarning mavjudlik mantiqiga muvofiq yashaydi va rivojlanadi. Mana shu mantiqning noto'g'ri talqin qilinishi, texnikaning gumanistik funksiyalarini o'zgarishi, insonga qulayliklar yaratishdan, uni boshqarishga, hukmronlik qilishga o'tib qolishi texnoetik madaniyatni rivojlantirish vazifalarini dolzarblashtiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Авлакулов А.М. Техноген цивилизация ва таълим-тарбия жараёнлари. -Тошкент.: 2016. –С. 12
2. Бакштановский В.И., Соломонов Ю.В.Этика профессии: миссия, ко-декс, поступок. – Тюмень: НИИ прикладной этики ТюмГНГУ, 2005
3. Беликов В.А. Философия образования личности: деятельностный аспект. – Москва.: Владос, 2004
4. Гусейнов А.А. Этика и мораль в современном мире. Секторэтики Института философии РАН / Этическая мысль.Ежегодник. – М.: ИФ РАН, 2000
5. Мемфорд Л. Техника и природа человека // Новая технократическая волна на Западе. – Москва.: Прогресс. 2012
6. Степин В.С. Проблемы философии, социологии и этики науки // На-ука. Общество. Человек. К 75-летию акад. И.Т.Фролова. – М.: Наука, 2004
7. Философия техники: история и современность. – М.: ИФРАН, 2007. – 20-29-б